



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021 йил, 1 -2 апрель

БУХОРО - 2021

Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси

- О. Х.Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.
- О.С.Қаххоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Ў.У. Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ю.А. Пўлотова – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.

Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

- О.С.Қаххоров – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.
- Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ф.М.Қосимов – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Ғ.М.Сайфуллаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Н.Б.Адизова – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.
- Р.А.Қўлдошев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.
- Р.Х.Жумаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-фсонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2021 йил 1 апрель куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида **“Бошланғич таълимга рақамли технологияларни татбиқ этишнинг замонавий тенденциялари ва ривожланиш омиллари”** мавзусидаги халқароилмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Такризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор
Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

6. “o” unlisi talaffuz qilganda, og‘iz “u” unlisini talaffuz qilgandagiga nisbatan torroq ochiladi. “o‘u”, “o‘i”, “io‘”, “o‘o”, “oo‘”, “o‘a”, “ao‘” birikmalarini uch martadan talaffuz qiling.

Yuqorida keltirilgan mashq namunalaridan darslik materiallariga qo‘shimcha sifatida foydalanish ko‘p vaqtni olmaydi. Shuningdek, bu xildagi mashqlarni o‘quvchilar qiynalmasdan bajara oladi. Unli tovushlar o‘tilganda, bu mashqlardan izchil foydalanish o‘quvchilarning fonematik eshitishlarini, talaffuzi (diksiya)ni taraqqiy ettiradi, bolalar juda ko‘p so‘zlarning imlosini “oldindan”-propedevtik o‘zlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov A., Abduazizov A., Risqulov T. Tilshunoslikka kirish. –T.: “O‘qituvchi”, 1971. 12-16-b
2. Yo‘ldoshov F., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent: “O‘qituvchi” 2004. 25-30-b
3. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1961. 32-40-b
4. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1986. -126 b.
5. G‘ulomov A. Q., Qobilova B.Sh. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. 160 b.
6. Abdullayeva Q., Nazarov K. Savod o‘rgatish darslari. –Toshkent: “O‘qituvchi” , 1996.10-15-b
7. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980.23-28-b
8. Abdullayeva Q. Rahmonbekova S. Ona tili darslari (1-sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). –Toshkent: “O‘qituvchi” 1999.13-16-b
9. Abdullayeva Q. va b. Savod o‘rgatish metodikasi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.14-16b.

LOYIHAVIY TA’LIM VOSITASIDA “ONA TILI O‘QITISH METODIKASI” MODULINI TAKOMILLASHTIRISH

U.Sh. Tog‘ayeva
BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada loyihaviy ta’lim vositasida “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini takomillashtirish yo‘llari, ta’lim sifatini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi, ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: loyiha, loyihaviy ta’lim, axborot texnologiya, pedagogik texnologiya, texnik vosita, didaktik vosita, pedagogik mahorat, axborotli vosita, interfaol metodlar.

Аннотация: В статье описаны пути совершенствования модуля «Методика обучения родному языку» через проектное обучение, использование информационно-коммуникационных технологий в повышении качества обучения, важность.

Ключевые слова: проект, проектное обучение, информационные технологии, педагогические технологии, технические средства, дидактический инструмент, педагогические навыки, информационный инструмент, интерактивные методы.

Annotation. This article describes the ways to improve the module "Methods of teaching the native language" through project education, the use of information and communication technologies in improving the quality of education, the importance of.

Key words: project, project education, information technology, pedagogical technology, technical means, didactic tool, pedagogical skills, information tool, interactive methods.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik

kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi.

Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri – bu boy dunyoqarashga ega va innovatsion faoliyatda ishtirok eta oladigan bilimli, malakali va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunda darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati katta. Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri va pedagogik texnologiyalar bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan sohadir.

Loyihaviy ta'limdan foydalanish quyidagi muammolarni hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;

- nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan baholash va talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Loyihaviy ta'lim vositasida "Ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarning o'rnini alohida. O'qituvchi darsni tashkil etar ekan, avvalo, uni loyihalaydi. Bunda u bor mahorati va kreativligini ishga soladi.

Axborot texnologiyalari – kishilarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnika vositalari hisoblanadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi.

O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash, unga yangicha yondashuvi, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Ona tili darslarida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari talabalarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Bahs – munozara talabalardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yo'ki

noto'g'riligi haqida o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi. Talaba bahs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "Men"ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko'lami, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida, o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
2. Tolipov U, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T., 2006.
3. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovastion texnologiyalar - Toshkent. "Iste'dod", 2008.

ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHGA OID METODIK KO'RSATMALAR

M. R. Hamroyeva, BuxDU o'qituvchisi
O. A. Subhonova, BuxDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishga doir fikr-mulohazalar aytib o'tilgan. Fikrlar esa ona tili va o'qish darsliklaridagi mashqlar vositasida asoslangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metod, darslik, til, nutq, mashg'ulot, pedagog, she'riy, topishmoq, talaffuz, tovush.

Аннотация. В статье приведены отзывы о развитии устной речи у младших школьников. Идеи основаны на упражнениях на родном языке и учебниках.

Ключевые слова: обучение, метод, учебник, язык, речь, урок, педагог, поэзия, загадка, произношение, звук.

Annotation: This article provides feedback on the development of oral speech in primary school students. The ideas are based on exercises in the native language and textbooks.

Key words: education, method, textbook, language, speech, lesson, pedagogue, poetry, riddle, pronunciation, sound.

Nutq ikki ko'rinishga ega – og'zaki va yozma. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'lsa ham har birida o'ziga xos xususiyat bor [5]. Chiroyli so'zlashni, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki uni ifodalay olmagan o'quvchilar bilimlarni samarali va foydali tarzda o'zlashtira olmaydilar. Nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lgan o'quvchining fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Maktabda barcha o'quvchilarning talaffuzi bir xilda to'g'ri rivojlangan bo'lavermaydi. Bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlab ham ololmaydilar. Bolalarning nutqidagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi.

Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzilish sabablarini o'rganish lozim. Bolaning nutqi yaxshi rivojlanishi uchun unga bog'cha davridan ko'plab ertaklar o'qib berish lozim. Yoshligida ko'p kitob ertak tinglagan bolaning dunyoqarashi, fikrlash doirasi tengdoshlarinikidan farq qiladi.

foydalanish	
<i>Saidova M. J.</i> Ta'limda multimedialardan foydalanish va uning didaktik imkoniyatlari	189
<i>Saidova G. E.</i> Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallar ustida ishlash metodikasi	193
<i>Saidova M. J.</i> Masofaviy ta'limda o'qitish imkoniyatlari va usullari	195
<i>Saidova G. E., Qoryog'diyeva A. Sh.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish	199
<i>Olloqova O', Murodova G.</i> Matematika darslarida geometrik figuralarni o'rgatishda interfaol metod va didaktik o'yinlardan foydalanish	201
<i>Hamroyeva M. R., G'afurova F.N.</i> Boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish	204
<i>G. E., Sanoqulova S. F.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllantirish, uzunliklarni o'lchash malakalarni hosil qilish	208
<i>Ozodova M. H.</i> Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni egallash bosqichlari	211
<i>Qosimov F.M.</i> Ijodiy topshiriqlar va ular tizimiga qo'yiladigan talablar	214
<i>Adizova N., Husenova D.</i> I- sinfdagi unli tovushlar talaffuzi ustida ishlash	217
<i>Tog'ayeva U.Sh.</i> Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish	221
<i>Hamroyeva M. R., Subhonova O. A.</i> Ona tili va o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishga oid metodik ko'rsatmalar	223
<i>Улуғмурод Амонов</i> «Диван лугат-ат-турк» нинг илк тадқиқотчиси	225
<i>Аҳмадов О. III.</i> Бухоро амирлигида анъанавий бошланғич таълим-тарбия тизими ва унинг инкирози	228
<i>Sidiqova D. S., Jabborova G.A.</i> Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlaridan foydalanish	230
<i>Tog'ayeva U.Sh., Xodjayeva M.Sh.</i> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanlararo aloqadorlik o'rnatish	233
<i>Qurbonova Sh. N., Razzoqova N.</i> Pedagogik texnologiya -ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimi sifatida	234
<i>Yusufzoda Sh. Y., Safarova D. F.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	237
<i>Yusufzoda Sh. Y., Egamqulova F T.</i> Grafik modellardan foydalanish usullari orqali masala yechish metodikasi	240
<i>Yusufzoda Sh. Y., Narzullayeva Z.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatga doir masalalar yechishga o'rgatish metodikasi	243
<i>Narzillayeva M. Sh.</i> Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda lingvodidaktikaning o'rni	245
<i>Rajabova N. K., Kamolova M. I.</i> Boshlang'ich sinflarda masalalar yechishning metodik asoslari	249
<i>Rajabova N.K.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishning metodik asoslari	251
<i>Ismatov S. R., Shukrullayeva Sh.Sh.</i> Savod o'rgatish davri yozuv darslarini o'rgatish usullari	252
<i>Olloqova O'.M., Zaripova M.O'.</i> Hikoya o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish	255
<i>Ҳафизов III.</i> Бошланғич синфларда жисмоний тарбия дарсининг тузилиши ва уни ўтказиш методикаси	258
<i>Adizova N.B., Ibrohimova F. A.</i> Avloniy she'rlarining boshlang'ich sinflarda o'rganilishi	261
<i>Sidiqova D. Sh.</i> "Matematika o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	264
<i>Қўлдошев P. A.</i> Чапақай ўқувчиларида ёзув кўникмаларини шакллантириш	266
<i>Safarova N. O., Jumayeva H. G.</i> Savod o'rgatish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirish	270
<i>Raximova N.A., Rustamova D.</i> Boshlang'ich sinf tarbiya tizimida innovatsiyalar	274
<i>Mirzayeva D. Q.</i> O'quvchilar nutqini o'stirishda lug'at ustida ishlash	277